Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxnunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Незматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Зеленое IPO как новый инструмент финансирования.....	1501
Шахзод Сайдуллаев	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar.....	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI: DEMOKRATIK RAHBARLAR

Amonov Mehriddin Oromiddinovich

Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-mail: mexriddin_amonov@tues.uz
Orcid-0009-0007-2217-0472

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik faoliyati boshqarishda qo'llaniladigan rahbarlik uslubi – demokratik rahbarlik haqida to'htalib o'tilgan. Demokratik rahbarlik uslubining ijobiy va salbiy jihatlari tahlil etilib, nazariy jihatdan asosiy yutuqli sifatlari keltirib o'tilgan. Shu bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatida demokratik rahbarlik uslubidan samarali foydalanish yuzasidan takliflar berilgan.

Kaliit so'zlar: tadbirkorlik faoliyati, rahbarlik uslublari, tashabbuskorlik, demokratik rahbarlar, qaror qabul qilish, jamoa fikri, ma'suliyat.

Abstract: The article examines in detail the leadership style used in business management – democratic leadership. The positive and negative sides of the democratic leadership style are analyzed and the main theoretically advantageous qualities are given. At the same time, suggestions are given on the effective use of a democratic leadership style in business activities.

Key words: entrepreneurship, leadership styles, initiative, democratic leaders, decision-making, team opinion, responsibility.

Аннотация: В статье подробно рассматривается стиль руководства, применяемый в управлении предпринимательской деятельностью – демократическое лидерство. Проанализированы положительные и отрицательные стороны демократического стиля руководства и приведены основные теоретически выигрышные качества. Вместе с тем, даны предложения по эффективному использованию демократического стиля руководства в предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: предпринимательская деятельность, стили руководства, инициатива, демократические лидеры, принятие решений, мнение коллектива, ответственность.

KIRISH

Har bir tadbirkor o'z faoliyatini boshlagan va rivojlantirib davom ettirayotgan jarayonda, olgan bilimi, ishtiyoqi, tavakkalchilik darajasi, moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlari, o'rgangan va amaliyot davomida orttirgan malaka hamda tajribasiga tayangan holda ish beruvchi sifatida o'z qo'l ostidagi xodimlarni turli rahbarlik uslublarida boshqaradi.

Xususiyl tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish va uni rejaga muvofiq rivojlantirishda rahbarlik uslubining ahamiyati beqiyosdir. Har bir rahbar o'z boshqaruv uslubiga ega bo'lib, bu bevosita korxonaning faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Boshqaruv uslubi deganda – boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning usul va yo'llari majmuasi tushuniladi. Ish uslubi esa – boshqaruv vazifalarini samarali bajarish maqsadida yuqori



organning quyi organga, ya'ni boshqaruvchining boshqariluvchilarga nisbatan amalga oshiradigan aniq va barqaror ta'sir usullari to'plamidir. Ushbu yondashuvlar yig'indisiga asoslanib, rahbarning ish uslubini – boshqaruv jarayonida muammolarni hal etishdagi o'ziga xos yondashuvi, deb ta'riflash mumkin. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil qilganda va qo'l ostidagilar ishini nazorat qilganda o'z lavozim vazifasiga muvofiq harakat qiladi [1].

Ammo har bir rahbar bunday vaziyatlarda o'ziga mos va individual rahbarlik usullarini qo'llaydi. Qandayki hayotda mutlaqo bir-birini aynan takrorlaydigan shaxslar mavjud bo'lmasa, boshqaruvda ham rahbarlik uslublari bir-biridan farq qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatida esa rahbar tomonidan ko'p hollarda qo'llaniladigan uslublardan biri – demokratik rahbarlik uslubidir. Ushbu maqolada aynan shu uslub haqida batafsil to'xtalishga harakat qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruvdagi rahbarlik uslublari bo'yicha xorijiy olimlardan M. Melson, M. Albert, F. Hkedouri [2], P. Druker [3]; rus olimlaridan V. Korolev, N. Arefeva, A. Belorusov, E. Ryazanova [4], Yu. Kuznetsova, B. Sokolov, Yu. Malenkov [5]; mahalliy olimlardan esa M. Sharifjo'jayev, Yo. Abdullayev [1], Sh. Zaynutdinov, N. Rasulov [6], N. Yo'ldoshev, G. Zaxidov [7], R. Nurimbetov, A. Ismoilov [8] kabi iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tadbirkorlik faoliyatini boshqarish va rahbarlik uslublariga oid yetakchi xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, ularning natijalari o'zaro taqqoslangan. Guruhlash, qiyosiy, iqtisodiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barcha faoliyat sohalarida bo'lgani kabi tadbirkorlikda ham rahbarlik uslubi rahbar bilan uning xodimlari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro munosabatlarda shakllanadi. Rahbarning boshqaruv uslubi uning intellektual salohiyati, shaxsiy sifatleri va individual xususiyatlari orqali boshqaruv obyektiga nisbatan bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Masalan, iqtisodiy boshqaruv usullaridan biri bo'lgan rag'batlantirishda ba'zi rahbarlar shaxsiy yutuqlarni mukofotlashga urg'u bersa, boshqalar jamoaviy rag'batlantirishga ko'proq mablag' ajratadi. Ayrim rahbarlar yillik natijalarga ko'ra mukofot belgilasa, boshqalar oylik yoki choraklik rag'batlantirish tizimini afzal ko'radi.

Rahbarlik uslubi – uning belgilari, xodimlarga munosabati va boshqa ko'rsatkichlariga ko'ra, barcha rahbarlarni asosan quyidagi uch toifaga ajratish mumkin (1-rasm):




1-rasm. Rahbarlik uslubiga qarab rahbarlarning turlarga ajratilishi.

Ushbu qatorda uchinchi o'rinda demokratik rahbarlik uslubi turadi. Bu uslub boshqa rahbarlik shakllaridan jamoa fikriga asoslanib qaror qabul qilinishi, xodimlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi bilan ajralib turadi. Shu sababli, biz aynan tadbirkorlik faoliyatida demokratik rahbarlarning o'rni, ularning ta'siri va samaradorligini tahlil qilishga harakat qildik.

Demokratik rahbarlik uslubi – bu rahbar tomonidan barcha muhim qarorlar jamoa bilan fikr almashgan holda qabul qilinadigan, xodimlarning shaxsiy tashabbuslari inobatga olinadigan boshqaruv yondashuvidir. Ushbu uslubda rahbar ishchilardan buyruq va topshiriqlarni belgilangan tartibda bajarishni talab qiladi, shu bilan birga jamoa muhokamalariga katta ahamiyat beradi.



Demokratik rahbarlik odatda rivojlangan sanoat tarmoqlari, ijtimoiy boshqaruv tizimlari va jamoat tashkilotlarida keng qo'llaniladi. U quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettiradi (2-rasm).



2-rasm. Demokratik rahbarlik xususiyatlari.

2-rasmda keltirilgan xususiyatlar aynan demokratik rahbarlik uslubiga xos bo'lib, ular ham boshqa rahbarlik uslublarida bo'lgani kabi tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, demokratik rahbarlik uslubining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uni amaliyotda qo'llashda tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ayrim jihatlarni ham inobatga olish zarur (3-rasm).



3-rasm. Demokratik rahbarlik uslubining ijobiy va salbiy jihatlari.

3-rasmda keltirilganidek, tadbirkorlik faoliyatini demokratik uslubda boshqarishda bir qator ijobiy jihatlarni mavjud bo'lib, bizning nazarimizda ular quyidagilardan iborat.

Birinchi, demokratik uslubda ish olib boradigan rahbar jamoasida o'rtoqlik va ishchanlik muhiti shakllanadi. Xodimlar bir-birlari bilan teng va do'stona munosabatda bo'lishlari natijasida jamoadam o'zaro



ishonch va ishchanlik darajasi ortadi. Bu esa, o'z navbatida, korxona samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatida tartib va intizom mavjud bo'lib, bu holat ishchi-xodimlarning o'zlari, ya'ni jamoaviy taklif etilgan hamda ma'qullangan aniq vazifalari doirasida (lavozim yo'riqnomasiga asosan) faoliyat yuritishlarini ta'minlaydi. Bu esa ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish hajmi va sifatining oshishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatida mas'uliyat va javobgarlik umumiy bo'lib, tadbirkor yoki u tayinlagan menejer korxona faoliyati yuzasidan barcha muhim qarorlarni jamoa bilan bamaslahat qabul qilgani sababli javobgarlik ham jamoaning zimmasida bo'ladi. Ya'ni rahbar bilan birgalikda jamoa mas'uliyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holda qaror qabul qiladi.

To'rtinchidan, zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati doimiy yangiliklarga intilib borishi bilan ajralib turadi. Demokratik rahbarlik uslubi muayyan sohalar, jumladan ijodiy, fan-texnika kabi innovatsion tashabbuslarni talab etuvchi murakkab ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida samarali bo'lish ehtimoli yuqori deb baholanadi.

Beshinchidan, demokratik rahbarlik uslubiga ega rahbarlar, uning qo'l ostida mehnat qiluvchi jamoaga nisbatan, taniqli iqtisodchi olim, "Inson munosabatlari menejmenti" maktabining yorqin namoyandasi D. MakGregorning "Y" nazariyasida qayd etilgan tamoyilga asoslanadi: "xodimlar o'z tabiati bo'yicha ishga ijobiy munosabatda bo'ladilar va o'z-o'zini boshqarishga intiladilar. Ular o'zlarini rivojlantirishga va mas'uliyat olishga tayyor bo'ladilar" [2].

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda qo'llaniladigan demokratik boshqaruvning ijobiy tomonlari bilan birga, o'ziga xos salbiy jihatlari ham mavjud. Bizning nuqtayi nazarimizda ular quyidagilar bo'lishi mumkin.

Birinchidan, demokratik boshqaruv uslubida jamoada odatda ko'pchilikning tashabbuslari, fikr-mulohazalari va xohish-istaklari amaliyotga joriy etilishi kuzatiladi. Bir tomondan, ba'zi hollarda noto'g'ri bo'lsa-da, ko'pchilik tanlagan yo'ldan borish oqibatida xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Boshqa tomondan esa, to'g'ri bo'lsa-da, kamchilikni tashkil etuvchi jamoa a'zolarining fikr-mulohazalari qaror qabul qilishda inobatga olinmay qolishi holatlari yuzaga chiqadi.

Ikkinchidan, jamoada faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun ish muhitining tez-tez o'zgarib turishi ehtimoli yuqori bo'lib, bu holat xodimlarning o'z erkinliklaridan ortiqcha foydalanishiga olib keladi. Ba'zi hollarda ular faqat o'z manfaatlarini ko'zlab, istalgan vaqtda fikr bildirishi mumkin degan noto'g'ri tushunchaga amal qilishlari, boshqalarning fikri va vaqtiga hurmatsizlik ko'rsatib, o'z harakatlarini asoslaydilar. Bu esa jamoaning boshqa a'zolarida befarqlik va sust ishlash holatlariga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, demokratik boshqaruvning asosiy unsurlaridan biri ko'pchilik fikrini tadbirkorlik faoliyati boshqaruvida ifoda etilishidir. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda operativlikning pasayishiga sabab bo'ladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI-asrda, barcha sohalar qatori, tadbirkorlik faoliyatida ham tezkor qaror qabul qilish muhim omil hisoblanadi. Demokratik boshqaruv uslubi esa ushbu tezkorlikni ta'minlash imkoniyatini cheklashi mumkin.

Yuqorida keltirilgan demokratik rahbarlik uslubining ijobiy va salbiy jihatlari tahlili asosida shuni ta'kidlash joizki, uning asosiy ustunligi demokratik rahbarlarning jamoa fikrini, tashabbuslarini hisobga olgan holda qaror qabul qilishidir. Shu jihati bilan u liberal yoki avtoritar rahbarlik uslublaridan ustun turadi. Ya'ni jamoa a'zolari fikrini inobatga olib, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni jamoaviy mas'ullar zimmasiga yuklaydi. Shu bilan birga, demokratik rahbarlar qaror qabul qilishda jamoaning ozchilik fikrini hisobga olmasligi mumkinligi, bu esa norozilikka sabab bo'lishi ehtimolini keltirib chiqaradi. Albatta, demokratik rahbarlikning xususiyatlari, xususan jamoa tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi ko'pgina sohalarida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, demokratik rahbarlik uslubi tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. U tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlash, jamoa uchun maqbul qarorlar qabul qilish hamda xodimlar tashabbuslarini rag'batlantirish kabi qator afzalliklarga ega. Shu bilan birga, yuqori darajadagi demokratik boshqaruv tashkilotda qarorlar tezkor qabul qilinishini ma'lum muddatlarga kechiktirishi mumkin. Zamonaviy iqtisodiy muhitda tadbirkorlar o'z korxonasi faoliyatida rahbarlikning turli uslublarini birlashtirish orqali optimal boshqaruvga erishishlari mumkin. Shu sababli, tadbirkorlik faoliyatida samarali natijalarga erishish uchun rahbarlik uslubini moslashtirish va zamonaviy tendensiyalarni inobatga olish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, ko'plab sohalarida faol qo'llaniladigan va amalda jamoa hamda tashkilotga manfaat keltirayotgan rahbarlik shakllaridan biri sifatida demokratik rahbarlik uslubini tadbirkorlik faoliyatida joriy etishda mulkdor va menejerlar quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim:



– Yuqorida keltirilgan ijobiy jihatlar samaradorligini ta'minlash uchun, xususan har bir xodimga o'z tashabbus va fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyati berilganida, ushbu jarayon ma'lum chegaralarda yuritilishi, ya'ni chuqur individualizm va shaxsiy manfaatlarni ilgari surishga yo'l qo'ymaslik maqsadga muvofiqdir;

– Salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan jihatlardan biri bo'lmish jamoada kamchilikni tashkil etuvchi xodimlar bilan muloqot uzilib qolmasligi, ularning ham fikr-mulohazalari eshitilishi va ijobiy tomonlari jamoaga yetkazilishi orqali umumiy jamoaviy muhitni yaxshilash uchun zamin yaratilishi lozim;

– Zamon talabiga mos faoliyat yuritish uchun tezkor qarorlar qabul qilinishi lozim bo'lgan vaziyatlarda, mas'ul shaxslar ya'ni oldindan belgilangan kichikroq jamoa faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali boshqaruvda operativlikni ta'minlash, korxona faoliyati unumdorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sharifxodjaev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. T.: O'qituvchi, 2002 y.- 464 b.
2. М.Мескон, М.Альберт, Ф.Хедоури Основы менеджмента (перевод с английского под. Общая редакция Л.И.Евченко). Москва «Дело» 1997. 701 с.
3. П.Друкер Менеджмент. Вызовы XXI века. Вильямс, 2001 г. 280 с.,
4. Основы менеджмента: учеб.пособие/ под ред. В.И.Королева – М., Магистр: ИНФРА-М, 2010. 620 с.
5. Менеджмент : учебник для вузов / под редакцией Ю.В.Кузнецова. - 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2025. – 595 с.
6. N.Rasulov, Sh.Zaynutdinov Innovatsion menejment Darslik Innovatsion rivojlanish nashyoti 2020. 421 b.
7. Menejment darslik / N.Yo'ldoshev, G.Zaxidov. - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 392 b
8. Зайнутдинов Ш. Н., Нуриббетов Р. И., Исмаилов А. М. Эффективность качества работы руководителя в условиях рыночных отношений //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 2. – С. 237-244.
9. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Dissertatsiya i.f.f.d., - T., 2024. – 142 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
